

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi
Ichki audit xizmatining 2026-yil I yarim yillik
faoliyati natijalari bo‘yicha
YILLIK HISOBOTI

1. Umumiy ma’lumotlar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosarining 2026-yil 13-apreldagi 03/1-4456-sonli topshirig‘i ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi raisining 2026-yil 2-maydagi 61-A-sonli “Ichki audit xizmatini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilinib, Qo‘mitada Ichki audit xizmati tashkil etildi.

Ichki audit xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilash, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlarini tartibga solish maqsadida Qo‘mita raisining 2026-yil 16-iyundagi 68-A-sonli “Ichki audit xizmati faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi buyrug‘i qabul qilindi.

Hisobot davrida xizmat faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ichki audit jarayonlarini amaldagi qonunchilik va uslubiy hujjatlarga muvofiq tashkil etish, nazorat obyektlari hamda audit yo‘nalishlarini shakllantirishga qaratilgan tashkiliy ishlar amalga oshirildi.

2. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2026-yil uchun nazorat ishlarining yillik dasturi O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi bilan kelishilgan holda 2026-yil 25-iyunda tasdiqlandi.

Mazkur yillik dasturda ichki audit va boshqa nazorat tadbirlarini keyingi hisobot davrlarida amalga oshirish nazarda tutilgan. Shu sababli 2026-yil I-yarim yillik davomida tasdiqlangan yillik dastur doirasida amaliy ichki audit tadbirlari, rejadan tashqari audit yoki masofaviy audit tadbirlari o‘tkazilmadi.

Hisobot davrida audit tadbirlari o‘tkazilmaganligi sababli audit natijasida aniqlangan yoxud profilaktika tartibida oldi olingan moliyaviy xato va kamchiliklar bo‘yicha ma’lumotlar mavjud emas.

3. Hisobot davrida o‘tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Yillik dastur 2026-yil 25-iyunda tasdiqlangan va undagi nazorat tadbirlari keyingi davrlar uchun rejalashtirilgan. Shu bois 2026-yil I yarim yillikda o‘tkazilishi rejalashtirilib, biroq amalga oshirilmay qolgan ichki audit tadbirlari mavjud emas.

4. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida ichki audit tadbirlari o'tkazilmaganligi sababli audit obyektlariga taklif va tavsiyalar berilmagan hamda ularning ijrosi yuzasidan chora-tadbirlar rejasi shakllantirilmagan. Tegishli ma'lumotlar mavjud emas.

5. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash (baholash) va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

Hisobot davrida Ichki audit xizmatining faoliyatini institutsional jihatdan yo'lga qo'yish bo'yicha quyidagi asosiy ishlar amalga oshirildi: xizmat tashkil etildi; uning faoliyatini tartibga soluvchi idoraviy hujjat qabul qilindi; 2026-yil uchun nazorat ishlarining yillik dasturi ishlab chiqildi, Hisob palatasi bilan kelishildi va tasdiqlandi.

Keyingi davrda audit tadbirlarini xavfga asoslangan yondashuv asosida tashkil etish, nazorat obyektlari bo'yicha dastlabki tahlillarni o'tkazish, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish va ichki audit hujjatlarini yagona uslubda yuritish rejalashtirilgan.

6. Qo'mita tizimidagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarning monitoringi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar.

Hisobot davrida budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa va tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlar monitoringi amalga oshirilmadi. Mazkur yo'nalishdagi ishlar tasdiqlangan yillik dastur va keyingi davrlar uchun belgilangan tadbirlar doirasida tashkil etiladi.

7. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan choralar.

Amaliy audit tadbirlari o'tkazilmaganligi sababli hisobot davrida tizimli moliyaviy kamchiliklar va buzilishlar aniqlanmadi.

Shu bilan birga, ichki audit faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun nazorat obyektlari bo'yicha moliyaviy va boshqaruv ma'lumotlarini to'liq shakllantirish, xavflarni baholash mezonlarini belgilash, ichki nazorat tartib-taomillarini inventarizatsiyadan o'tkazish hamda audit uchun zarur axborotlarni o'z vaqtida taqdim etish mexanizmini joriy etish zarurligi qayd etildi. Mazkur masalalar bo'yicha tashkiliy choralar ko'rilmogda.

8. Budjet intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budjet xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

Qo'mita va uning tizim tashkilotlarida budjet mablag'laridan maqsadli hamda samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida xarajatlar, davlat xaridlari, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, xizmat safarlari, asosiy vositalar va tovar-moddiy

boyliklar hisobi bo'yicha ichki nazorat mexanizmlarini muntazam tahlil qilib borish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, moliyaviy xavflar reyestrini yuritish, xavf darajasi yuqori bo'lgan yo'nalishlarni ustuvor tartibda auditdan o'tkazish va aniqlangan kamchiliklarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish taklif etiladi.

9. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Ichki audit xizmati xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, belgilangan tartibda sertifikatlash jarayonlarida ishtirokini ta'minlash, zamonaviy audit usullari va axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, masofaviy audit hamda ma'lumotlar tahlili vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq.

10. Ichki audit xizmati xodimlarining faoliyati samaradorligini baholash natijalari.

Hisobot davrida Ichki audit xizmatni tashkil etish, uning faoliyatini tartibga soluvchi hujjatni qabul qilish hamda 2026-yil uchun nazorat ishlarining yillik dasturini Hisob palatasi bilan kelishgan holda tasdiqlash bo'yicha belgilangan tashkiliy vazifalar bajarildi. Xodimlar faoliyati samaradorligining to'liq baholanishi yillik dasturda nazarda tutilgan audit tadbirlari amalga oshirilganidan so'ng belgilangan tartibda taqdim etiladi.

**Ichki audit xizmati
bosh mutaxassisi**



J.Omanov

JUR3286

JUR3286

2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi ichki audit xizmatining
shtat birliklari to'g'risida
MA'LUMOT**

01.07.2026-yil

T/r	Tizimdagi tashkilotlar soni	Ichki audit xizmatlari shtat birliklari soni		
		jami	markaziy apparatda	budjet tashkilotlari darajasida
1	1	1	1	